

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI MOSLASHISH DAVRDA BOLALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH

**O'rolova Muhayyoxon Shokirjon qizi**

**Qo'qon Universiteti 2-kurs talabasi 1-24-guruh talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20137944>**

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning bog'chaga moslashuvi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bolalar uchun yangi muhit – bu nafaqat yangi o'yinlar va do'stlar, balki psixologik sinov hamdir. Shu sababli moslashish davrida ularga to'g'ri yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologlar fikriga ko'ra, moslashish jarayoni har bir bolada turlicha kechadi. Ba'zi bolalar tez moslashsa, boshqalarda bu jarayon uzoq davom etadi. Shu davrda tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachilar bolalarga mehribonlik bilan yondashib, ularni asta-sekin jamoaga jalb etishlari lozim. Dastlabki kunlarda qisqa vaqt davomida bog'chada qolish, sevimli o'yinchoqlarni olib kelish va bolaning his-tuyg'ulariga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Bu esa bolaning xavotirini kamaytiradi va ishonchini oshiradi. Ota-onalar ham bu jarayonda faol ishtirok etishlari zarur. Ular bolani ruhiy jihatdan tayyorlab, bog'cha haqida ijobiy tasavvur uyg'otishlari kerak. “Bog'chada sen yangi do'stlar topasan”, kabi ijobiy gaplar bolaga motivatsiya beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning ilk ijtimoiylashuv va ta'limga kirib borish bosqichidir. Bola uchun bu muassasaga kirish jarayoni yangi hayot bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur bosqich bolaning psixologik, emotsional va ijtimoiy jihatdan o'zgarishini talab etadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning moslashuv davrini chuqur o'rganish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va samarali yondashuvlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qabul qilgan bir qator qarorlarida bolalarni maktabgacha ta'limga bosqichma-bosqich jalb qilish, ularni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, moslashuv jarayonini yengillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4477-sonli qaror va 2021-yil 16-martdagi PQ- 5032-sonli qarorlarda bu borada amaliy chora-tadbirlar ko'rsatilgan. Ularning ijrosi natijasida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning moslashuv davrini tizimli ravishda tashkil qilish va ularning farovonligini ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Moslashuv – bu bolaning yangi muhitga, jamoaga, yangi tartib va pedagogik talablar tizimiga moslashish jarayonidir. Ilmiy adabiyotlarda moslashuv jarayoni uch asosiy bosqichda kechishi ko'rsatilgan:

1. Ilk bosqich (reaksiya bosqichi): bola o'ziga notanish muhitda begonalik his qiladi, yig'lash, tortinchoqlik, kayfiyat o'zgarishlari kuzatiladi.

2. O'rganish bosqichi: bola yangi muhitga asta-sekin ko'nikadi, kun tartibiga moslashishni boshlaydi.

3. Barqaror bosqich: bola o'zini erkin tuta boshlaydi, jamoa a'zosi sifatida harakat qiladi, faol ishtirok etadi.

Innavatsion pedagogik faoliyatning o'ziga hos turi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy shart-innavatsion texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyaviy ishlarda bola shaxsining shakillantirishda

innovatsion texnologiyalardan foydalansa tarbiyaviy jarayonlarda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bola shaxsini shakillantirishda uni ishtimoiy hayotga kirishidagi muomolarga to‘g‘ri va izchil yondashish bolaning ijtmoy moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi Ijtmoy moslashuv bolaning tengdoshlar guruhiga kirishish, jamiyatda mavjud bo‘lgan meyyorlar xulq atvor qoidlari qabul qilish yashash sharoitlariga moslashish bunda o‘zini anglash va ro‘lli hattai harakatlar o‘zini o‘zi boshqari qobilyati o‘z o‘ziga hizmat qilish boshqalar bilan adekvat munosabatlar shakillanadi. Bolalar Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarigaberishning boshlanishi bolalarda yangi ijtmoy muhitga moslashishini, kattalar va tengdoshlar aloqalarni o‘rnatishni hattai xarakatlarning moslashuvchanligi va moslashuvchan mexanizmlarni rivojlanishini talab etadi. Kundalik tartib, talab va majburiyatlar bola uchun kutulmagan holga aylanib qoladi vashu bilan birga uni stresli holatga keltiradi. Bazi bolalar uchun qiyin sharti bu guruh xonasini katta maydoni jihozlari va oddatdagi uy sharoitlari sezilarli darajada farq qiladi. Bunday holatda Bolani hafsizlik tuyg‘usidan mahrum qilmaslik uchun uni kattalarga yaqinroq, cheklanganroq joyga qo‘yish yaxshiroq. Bu shuningdek pedogog moslashish davrida bolalarni kattalar bilan hissiy aloqada bo‘lgan o‘ta keskin extiyojlarni qondirishga dastlabki tayyorgarlikning yetishmasligi nevrologik reaksiyalarni olib kelishi mumkin.

-Emotsional holatning buzilishi; -Uyqu va ishtahaning yomonlashuvi; -Maktabgacha ta‘lim tashkiloti qo‘rquvning rivojlanishi; -Kasallikning kuchayishi;

Bolaning ijtmoy psixologik moslashuvi turliyo‘llar bilan sodir bo‘ladi va bevosita bolaning yoshiga sog‘lig‘iga yuqori asabiy faoliyat turiga, oiladagi tarbiya uslubiga va uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarga, o‘yin ko‘nikmalarining rivojlanishi darajasiga bog‘liq. Ko‘p jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtmoy moslashuvi ota – onalarning Bolani bo‘ljak o‘zgarishlarga qanday ahloqiy va jismoniy tayyorlanganiga shuningdek bolaning individual tipologik hususiyatlariga bog‘liq xolorik va sangvenik bolalar flagmatik melonxoliklarga qaraganda teziroq moslashadi. Bolalarning eng kichik yoshdanoq uning mustaqilligini rag‘batlantirish kerak, keyin u sog‘lom komil inson bo‘lib o‘sadi. (Toxirovna, K. F. (2024). O‘Qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. *Miasto Przyszłość* 51, 146-148)

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuv jarayoni bolaning yoshi, fe‘l-atvori, oilaviy sharoiti hamda maktabgacha ta‘lim muassasasining pedagogik yondashuviga bog‘liq holda turlicha kechadi. Ko‘plab hollarda bu jarayon 2-3 hafta ichida ijobiy yo‘lga qo‘yilsa-da, ba‘zi bolalar uchun bu bir necha oy davom etishi mumkin. Moslashuv davrida bolaning kayfiyati, sog‘ligi va rivojlanish sur‘atlarini kuzatib borish zarur hisoblanadi (Karimova, 2021: 37).

Moslashuv davrining ahamiyati shundaki, bu jarayon muvaffaqiyatli kechgan taqdirda, bola o‘zini xavfsiz his qiladi, yangi muhitda erkin harakat qiladi va ijtimoiylashuv jarayoniga faol qo‘shiladi. Aksincha, moslashuvda muammolar kuzatilsa, bu bolaning kelajakdagi o‘qish va rivojlanish faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin (Toshpulatova, 2020: 45). Moslashuv davrini yengillashtirish maqsadida quyidagi pedagogik chora-tadbirlar tavsiya etiladi: oilaviy va bog‘cha o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, moslashuv dasturlarini ishlab chiqish, bolalarga individual yondashuvni kuchaytirish, yangi sharoitga moslashtiruvchi o‘yinlar va mashg‘ulotlar tashkil etish. Pedagog va psixologlarning fikricha, aynan shunday yondashuvlar orqali bola yangi sharoitda o‘zini erkin his eta boshlaydi (Ismoilova, 2022: 53).

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning moslashuv davri – bu ularning yangi ijtimoiy muhitga, yangi tartib-qoidalarga va pedagoglar bilan o‘zaro munosabatlarga moslashish davridir. Bu davr tarbiyalanuvchining psixologik, emotsional va

intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur davrda bolaning o'zini erkin his qilishi, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi va yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishi uchun pedagoglar, ota-onalar va psixologlar o'rtasidagi hamkorlik nihoyatda muhimdir. maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi moslashuv davri – bolaning kelajakdagi ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi nafaqat bolaning ta'lim muhitiga ko'nikishini, balki uning shaxsiy barkamolligini ham belgilab beradi.

Bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayoni ularning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda tarbiyachining roli beqiyos bo'lib, u nafaqat bilim beruvchi, balki fasilitator sifatida bolaning shaxsiy rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Fasilitatorlik yondashuvi tarbiyachidan bolaga erkin, do'stona va ishonchli muhit yaratishni, uning tashabbuslarini rag'batlantirishni, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olishni talab qiladi. Amaliy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, tarbiyachi faoliyatida o'yin metodlari, rolli mashqlar, hamkorlik loyihalari, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlashdan samarali foydalanilganda bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasi ancha yuqori bo'ladi. Bolalar jamoada o'z o'rnini topadi, muloqot madaniyatiga ega bo'ladi, o'z fikrini erkin ifoda eta oladi va tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishni o'rganadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-sonli qarori. – T.: Adliya vazirligi, 2019. – 12 b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-martdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5032-sonli qarori. – T.: Adliya vazirligi, 2021. – 10 b.
3. Toxirovna, K. F. (2024). O 'Qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. *Miasto Przyszłości*, 51, 146-148.
4. Kalandarova F.T. KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>
5. Kalandarova, F. (2024). O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DEONTOLOGIK YONDASHUV. Namangan Davlat Universiteti